

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

Nargiza RAFIYEVA. O'zbek kitobot va miniatura san'ati	126
R.N.RAXIMOV, M.K.AKRAMOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining vokal-xor malakalarini tarkib toptirish	129
Baxrom MADRIMOV. O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlar jarayonida axloqiy-estetik tarbiyalash	132
Sanoqul DO'STOV. Musiqani tinglab uni idrok etishning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.....	135
Davron RO'ZIYEV. Konsert namoyishiga tayyorgarlik faoliyati	139
Baxtiyor MUSTAFOYEV. Umumiy o'rta ta'lim tizimi islohotlarida musiqa madaniyati	143
To'xtasin RAJABOV. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati	146
Shoira NOROVA. Yosh avlodni musiqa san'ati orqali tarbiyalash yo'llari	149
Ilhom QO'SHAYEV. An'anaviy musiqiy merosni o'rganishni metodik takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni	152
Ibrohim KAYUMOV. San'atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati	154
Sadritdin GULOV. O'zbekiston maktablarida musiqa cholg'ulariga yo'naltirishning zamonaviy ilg'or innovatsiyalari.....	157
Halim HASANOV. Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik (musiqa fani misolida)	159
Shavkatjon KAMOLOV, Husniddin HIKMATOV. Talabalarda mustaqil ta'limni tashkil etish.....	161
Сайфулла АБДУЛЛАЕВ. Краткосрочные рисунки как средство формирования художественного воображения студентов в процессе рисования по памяти и представлению	163
To'liqinjon Muxamedov. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik shaxsini shakllantirish	167
O'g'iloy RAMAZONOVA, Ferangiz Odilova. O'n ikki maqom tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari ..	169
Malohat RAXMATOVA, Gulbahor ISTAMOVA. "Shashmaqom" nasr (ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'balari) o'rgatish yo'llari.....	171
Olimxo'ja KARIMOV, Rahim XODJAYEV. Musiqa to'garaklarida o'quvchilarni skripka cholg'u sozi bilan tanishtirish.....	173
Ma'rifat UMUROVA. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'yin bola tarbiyasining muhim vositasi.....	176
Shohruh SHODIYEV. Qashqar rubobida xalq kuylarini notalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	181
Azamat Rajabov. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili ..	186
Рустам АТАМУРАДОВ. Формирование умений и навыков по школьному репертуару учителей музыки в общеобразовательной школе	188
Sherzod SHAMSIYEV, Dilbar MO'SINOVA. Xor uchun yozilgan musiqa asarini tahlil qilish yo'llari.....	191
Сухроб АБДУЛЛАЕВ. Формы организации научно – исследовательской и творческой деятельности студентов направления образования "Изобразительное искусство и инженерная графика".....	193
Olimxo'ja KARIMOV, Gulmira QUTLIYEVA. O'quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirish	195
Olimxo'ja KARIMOV, Sitorabonu SHARIPOVA. Qo'shiq va kuylar orqali komil inson shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslari.....	198
Qobil QORIYEV. O'zbek musiqa san'atining qadimiy ildizlari tarixidan	200
Abror AZIMOV. Zardushtiy va buddaviylar davri ommaviy musiqa va badiiy san'at tarixi va turlari	202
Said BOLTAZODA. Avesto davrining xorazm va sug'diyona musiqa maktablari madaniyatida ijrochilik uslublari.....	204
Davron RO'ZIYEV, Jamshid NIYOZOV. Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini shashmaqomning nasr bo'limi vositasida axloqiy-estetik tarbiyalash	206
Sanoqul DO'STOV, Zilola RUZIYEVA. O'quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda milliy dutor cholg'usining o'rni va tarbiyaviy ahamiyati	208
Mehriniso Begmurodova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa terapiya mashqlarining ahamiyati ...	210
Zafarbek YAQUBOV. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi ma'naviyatini rivojlantirishda Xorazm xalq dostonlarining o'rni	212
Umidbek BOLTAYEV. Milliy musiqiy meros-o'quvchilar estetik tarbiya vositasi	214
Uchqun BOLIYEV. Ma'naviy axloqiy tarbiyaga kompleks yondashish	217
Maqsuda AXMEDOVA. Musiqiy tasavvurlarni shakllantirishda pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalari	219
Adilshoda TO'YMURODOV. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'quvchining ijodkorligi	222
Hafiza HAMIDOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini folklor qo'shiqlari vositasida tarbiyalashda alla qo'shig'ining ahamiyati.....	225
Mirshod XODJIYEV. Buxorcha va mavrigi turkumi haqida.....	228
Firangiz SHUKUROVA. Buxoro folklor qo'shiqlarining maktab darsliklaridagi o'rni	230
Shaxnoza YAXYOYEVA. Buxoro shashmaqomining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	233

Ilhom QO'SHAYEV

Buxoro davlat universiteti

musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

AN'ANAVIY MUSIQIY MEROSNI O'RGANISHNI METODIK TAKOMILLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM MAZMUNI

Maqolada an'anaviy musiqa san'atining hayotimizdagi tutgan o'rni, ularning she'riy va musiqiy ohang xususiyatlari hamda ijro uslublarini umum ta'lim maktablarida qo'llash metodikasi haqidagi tushunchalar berilgan. Bunday tahlil yoshlarning ta'lim jarayonida milliy musiqalarini tinlash, idrok etish va ijro yo'llarini anglashga xizmat qilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: baxshi, do'mbira, xalfa, mumtoz, so'z, soz, doston, aytim, ijodiyot, mumtoz, xonandalik musiqa idroki, gulligi, ochiq ovozdá kuylash uslublari, usul, nag'ma.

Статья даёт представление о роли традиционной музыки в нашей жизни, её поэтико-музыкальных тембровых особенностях и способах применения исполнительских приемов в общеобразовательной школе, служит для понимания способов восприятия и исполнения.

Ключевые слова: бахши, домбира, халфа, классика, слово, соз, дoston, айтым, творчество, классика, певческое восприятие музыки, цветок, открытый певческий стиль, прием, нагма.

The article gives an idea of the role of traditional music in our life, its poetic and musical timbre features and ways of using performing techniques in a general education school, serves to understand the ways of perception and performance.

Key words: bakhshi, dombra, halfa, classics, word, soz, doston, aym, creativity, classics, singing perception of music, flower, open singing style, technique, nagma.

Kirish. Doston xalq og'zaki ijodining qadimiy turlaridan biridir. "Doston" so'zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma'nolarini bildiradi. Dostonlar, asosan, ikki usulda yaratilib kelingan. Birinchisi, asrlar davomida dostonchi baxshilarning og'zaki jonli ijrolari orqali avloddan-avlodga o'tib, so'z, she'r, ovoz va soz vositasida kuylab kelingan "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlar. Ikkinchisi, shoirlar yozma shaklda ijod qilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlari hisoblanadi.

Asosiy qism. Ommaviy axborot va texnika vositalari, kino va teatr tomoshalari bo'lmagan uzoq o'tmishda ajdodlarimizning ruhiga zo'r tuyg'uli (emotsional) ta'sir ko'rsatib, ularning tarbiyasida yetakchi vositalardan biri bo'lgan dostonlar bugungi kunda ham o'z badiiy qimmatini yo'qotgan emas. Hozir Respublikamizning Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Namangon viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Muxtor Respublikasida xalq dostonlarini zo'r mahorat bilan ijro etib kelayotgan bir qancha taniqli baxshilar, jirovlar va xalfalar bor. Mashhur baxshi ustozlar boshchiligida ustoz va shogirdlik an'analari asosida dostonchilik maktablari paydo bo'lgani, dostonlar ijrosi audio va video yozuvlarini tayyorlash, ularni ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish, baxshilar ko'rik-tanlovlarini tashkil etish, "O'zbekiston xalq baxshisi" faxriy unvoni ta'sis etilishi mustaqillik yillarida dostonlarga bo'lgan qiziqish va e'tiborning keskin oshib borayotganligidan dalolatdir.

Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa merosimiz tarkibidagi dostonchilik san'atining ko'p asrluk tarixi mobaynida yaratilgan xalqimizning qahramonlik dostonlari namunalaridan eng mashhuri "Alpomish" dostonidir. Shuning uchun ham 1999-yil 6-noyabrda ko'hna Termiz shahrida "Alpomish" dostoni yaratilishining 1000 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Alpomish" dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi, odil va haqqo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi", - degan edilar.

Dostonlarni filologik jihatdan o'rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar mavjud. V.M.Jirmunskiy, Hodi Zarif, M.Saidov, Q.Maqsatov, T.Mirzayev, H.Abdullayev, O.Madayev, N.Soburov, B.Sarimsoqov M.Murodov, S.Ro'zimboyev va boshqa tadqiqotchilarning asarlari shular jumlasidandir. Dostonlarning musiqiy asoslarini o'rganish borasida nisbatan oz bo'lsada, birmuncha ilmiy izlanish ishlari bo'lgan. I.Akbarov, Yu.Kon, A.Jabborov, M.Yusupov, O.Halimov, A.Xayratdinov, K.Olimboyeva, M.Jiyemuratov, xususan, yirik tadqiqotchi olim F.Karomatli va B.Matyoqubovlarning tadqiqotlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mustaqillik sharofati bilan umumiy ta'lim musiqa madaniyati darslari namunaviy o'quv dasturiga ayrim doston namunalari kiritilgan. Dasturda qaysi doston qanaqa namunalarni tanlash aniq ko'rsatilmagan bo'lsada, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabi dostonlardan nomalar tanlab, o'quvchilar bilan asosan tinglash va qisman parchalar kuylash tavsiya etilgan. Ammo maktab musiqa darsliklarida faqat 7-sinf musiqa darsligida "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidan atigi bitta "Bolama o'xshaydi ovozing seni" nomasidan boshqa doston namunalari berilmagan.

Bolalar musiqa va san'at maktablari, oliy va o'rta maxsus musiqa ta'limi jarayonida o'qitiladigan "O'zbek xalq musiqa ijodiyoti", "An'anaviy qo'shiqchilik va maqom asoslari", "An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi", "Mumtoz qo'shiqchilik", kuylash faoliyati bilan bog'liq aytim (xonandalik) yo'nalishidagi jamoaviy va yakka musiqiy ijro fanlari namunaviy o'quv dasturlarida doston haqida aniq biror narsa deyilmagan.

Muhokamalar va natijalar. O'tmishda doston ijrochiligi an'analari tarkibida ijroning ma'lum o'ziga xos jilolari bilan bir-biridan farq qiladigan dostonchilik maktablari vujudga kelgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Xorazm va boshqa dostonchilik maktablari mavjud. Samarqand dostonchilik an'analari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan bo'lib, ular Bulung'ur, Nurota (Qo'rg'on) va Narpay dostonchilik maktablarini o'z ichiga oladi.

Bulung'ur dostonchilik maktabida ko'pincha "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf bilan Ahmad", "Rustamxon", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Jahongir" "Oysuluv", "Hasanxon", "Chambil qamali" kabi qahramonlik dostonlari zo'r mahorat bilan kuylangan. Muhammad shoir, Sultonmurod Suyar, Rahim - bulbul, Amin baxshi, Chinni shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Yo'ldosh - bulbul, Yo'ldosh shoir, Qo'ldosh Suyar kabi baxshilar bu maktabning o'tmishdagi yirik namoyandaligidir. Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) bu maktabning so'nggi yirik vakillaridan edi.

Mustaqillik yillarida dostonchilik an'analarni o'rganish, mukammal ijrolarni yozib olish, rivojlatirish, targ'ib qilish va asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazish borasida anchagina amaliy ishlar qilinmoqda. Ammo hozirgi kunda doston nomalarining yorqin namunalarini ta'lim nazariyasi (didaktik) tamoyillari asosida tanlash, musiqiy nazariy tahlil etish, tasniflash, ularning pedagogik imkoniyatlari, uzluksiz musiqa ta'limi mazmunidagi o'rni, turli musiqa saboqlari jarayonida o'rganish va o'zlashtirishning metodik xususiyatlarini aniqlash asosida tegishli musiqa fanlari o'quv dasturlariga kiritishni tavsiya etish va dars materiallarini o'z ichiga olgan maxsus o'quv qo'llanma tuzish - yechimini kutayotgan muammo bo'lib turibdi. Buning asosiy sababi musiqiy pedagogik ta'lim yo'nalishida sobiq o'tmish davr siyosati talablari doirasida vujudga kelgan ayrim kamchiliklar tuzatilmasdan, hanuzgacha e'tibordan chetda qolib kelayotganligi bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz.

Xulosa. Mavzuga oid asoslangan musiqiy pedagogik va metodik tavsiyalar, darslarda foydalanish uchun tayyorlangan materiallar matni va doston nomalaridan tanlangan nota misollarining mazkur o'quv qo'llanma holida yig'ilganligi bu boradagi ishlarning kamtarona mahsulidir.

Adabiyotlar

1. Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И "Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)" ACADEMY научно-методический журнал ноябр-2020 Ст.59-62.
2. Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И "Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана" ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021.
3. IA.Kushaev "Musical pedagogical fundamentals of doston art" ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2020/10/10. 1061-1067
4. IA Kushaev "MUSIC PEDAGOGICAL DOLLARS OF DOSTON ART" International Engineering Journal For Research & Development2020/12/10
5. Ilkhom Akhtamovich Kushaev "BAKHSI ART SCHOOLS AND THEIR PERFORMING FEATURES" Scientific reports of Bukhara State University 2020//3/3 Стр.295-299